

20-Aprel, 2026-yil

**OLIV TA‘LIMDA CHET TILLARINI O‘QITISHDA INKLYUZIV O‘QUV  
MUHITLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Saodat Agzamkhodjaeva**

*Senior Teacher, Department of applied disciplines 3*

*English language 3 faculty, Uzbekistan State World Languages University*

*[saodat.abrarovna@gmail.com](mailto:saodat.abrarovna@gmail.com)*

---

**Annotatsiya:** *Mazkur tezisdagi oliy ta‘lim tizimida chet tillarini o‘qitishda inklyuziv yondashuvning ahamiyati, uning asosiy tamoyillari hamda samarali o‘quv muhitini yaratish yo‘llari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta‘lim barcha talabalarning, jumladan, turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan shaxslarning teng imkoniyatlarda bilim olishini ta‘minlashga qaratilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik metodlar, differensial yondashuv va raqamli texnologiyalarning roli yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va inklyuziv muhitni shakllantirishdagi o‘rni muhim omil sifatida ko‘rsatib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *inklyuziv ta‘lim, chet tillarini o‘qitish, oliy ta‘lim, differensial yondashuv, 69 pedagogik texnologiyalar, individual ehtiyojlar, o‘quv muhiti, kompetensiya, raqamli ta‘lim*

---

**Abstract (English):** *This study explores the development of inclusive learning environments in university-level foreign language education. It examines theoretical foundations, pedagogical approaches, and practical strategies aimed at ensuring equal learning opportunities for all students, including those with diverse needs. The research applies a mixed-method approach, combining literature analysis and qualitative observations. Findings indicate that inclusive practices such as differentiated instruction, the use of digital technologies, and learner-centered methodologies significantly enhance student engagement and achievement. The study concludes that fostering inclusive environments requires institutional support, teacher training, and continuous adaptation of teaching practices.*

**Keywords:** *inclusive education, foreign language teaching, higher education, differentiated instruction, digital learning, student-centered approach*

---

**Аннотация (Русский):** *В данной статье рассматривается развитие инклюзивной образовательной среды в обучении иностранным языкам в высших учебных заведениях. Анализируются теоретические основы, педагогические подходы и практические стратегии, направленные на обеспечение равных возможностей для всех студентов. Исследование основано на смешанной методологии, включающей анализ литературы и качественные наблюдения. Результаты показывают, что дифференцированное обучение, цифровые технологии и студентоориентированные*

*методы повышают эффективность обучения. Делается вывод о необходимости институциональной поддержки и повышения квалификации преподавателей.*

**Ключевые слова:** *инклюзивное образование, обучение иностранным языкам, высшее образование, дифференцированное обучение*

## ASOSIY MATN

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini bilish zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ayniqsa, inklyuziv ta’limni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Inklyuziv o‘quv muhitini yaratish nafaqat nogironligi bo‘lgan talabalar, balki turli o‘rganish uslublariga ega bo‘lgan barcha o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Chet tillarini o‘qitishda inklyuzivlikni ta’minlash uchun o‘qituvchilar differensial yondashuvdan foydalanishlari lozim. Bu yondashuv talabalarning bilim darajasi, qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv materiallarini moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, vizual, eshitish va kinestetik o‘quvchilar uchun turli metod va vositalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Kambridj universiteti professori Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014) yilda chop etilgan maqolasidagi quyidagi muhokamali matni firlarimizni aynan to‘ldiradi: “Til o‘rganish sinflarida kommunikatsiyaga berilgan urg‘u, shunday qilib aytganda, Omon sultonligidagi ingliz tilida o‘qitiladigan (EMI) universitetlarda EFL sharoitidagi o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining oshishiga olib keldi. Ushbu maqolada CLT (Kommunikativ til o‘qitish) yondashuvi asosan til funksiyalariga qaratilgani, sinfda kommunikativ o‘zaro ta’sirga katta e’tibor berilgani, o‘quvchilar bilan til funksiyalarini mazmunli mashq qilish hamda o‘qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etishi yoritiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ijobiy rag‘batlantirish, xatolarni tabiiy jarayon sifatida qabul qilish kabi tushunchalarga yangicha e’tibor qaratilishiga olib keladi”.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar inklyuziv muhitni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar va multimedia resurslari orqali har bir talaba o‘ziga qulay tempda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim shakllari ham inklyuzivlikni kengaytiradi.

UNESCOning 2020-yildagi Global Ta’lim Monitoring Hisobotiga ko‘ra “Inklyuziya va ta’lim: hamma uchun ta’lim” — haqiqiy inklyuziv ta’lim barcha o‘quvchilarni, ularning kelib chiqishi yoki imkoniyatlaridan qat’i nazar, qo‘llab-quvvatlash uchun tizim darajasidagi o‘zgarishlarni talab etishini ta’kidlaydi. Hisobot millionlab insonlar hanuzgacha stigma, stereotiplar va yetarli infratuzilmaning yo‘qligi kabi to‘siqlar sabab ta’limdan chetda qolayotganidan ogohlantiradi. Unda eng ko‘p cheklangan guruhlarga ustuvor ahamiyat berish, hamda Barqaror rivojlanish maqsadi 4 (SDG 4) ga erishish uchun ma’lumotlarga asoslangan va yetarli moliyalashtirilgan siyosatlarni ishlab chiqish zarurligi qayd etiladi.

20-Aprel, 2026-yil

O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ham inklyuziv ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omildir. Pedagoglar nafaqat til o‘rgatish metodikasini, balki inklyuziv pedagogika asoslarini ham chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari zarur. Bu esa maxsus treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslari orqali ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda chet tillarini o‘qitishda inklyuziv o‘quv muhitini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, teng imkoniyatlarni ta’minlash va har bir talabani jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S.Agzamxodjayeva, (2025). Current issues in the implementation of inclusive education in the modern education system in presett. XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –6/3-2025

2. UNESCO. (2020). Inclusion and education: All means all. Paris: UNESCO Publishing.

3. Tomlinson, C. A. (2014). The Differentiated Classroom. ASCD.

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

5. Florian, L. (2015). Inclusive Pedagogy: A Transformative Approach. Routledge.

6. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.

7. S.Agzamxodjayeva, (2025). AELLCA OLIY TA’LIM HAMKORLIKLARIGA KIRITILISH MASALALARI TADQIQI. «Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature».

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid qarorlari va strategik hujjatlari.

9. Zokirova, M. (2021). Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari. Toshkent.